

**INVESTITSIYA FAOLIYATIDA ADOLATLI VA TENG
MUOMALA: UNING MINIMAL STANDARTI VA ODAT
HUQUQINING MAQOMI BILAN O'ZARO TA'SIRI**

Sheraliyeva Zebiniso Sayfulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi

zebinisosheraliyeva2002@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiya faoliyatini yuritishda xalqaro va mahalliy investorlarga nisbatan har bir davlatdagi normalar asosi hamda xalqaro miqyosda tan olingan adolatli va teng muomala siyosatini yuritish zarurati qanchalik muhimligi, uning standart darajalarini, odat huquqi bilan o'zaro ta'sir darajalari qanday ekanligi O'zbekistonning milliy qonunchilik tizimi, xalqaro urf-odatlar, xalqaro darajadagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar asosida tahliliy o'rganilgan. Investitsiya faoliyati uchun muhim omillardan biri adolatli va teng muomala siyosati ekanligidan kelib chiqib, tanqidiy xulosa va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, adolatli va teng muomala, odat huquqi, investor, chet el, mahalliy.

**FAIR AND EQUAL TREATMENT IN INVESTMENT
ACTIVITIES: ITS INTERACTION WITH MINIMUM
STANDARDS AND CUSTOMARY LAW STATUS**

Sheraliyeva Zebiniso Sayfulla kizi

Student at Tashkent State University of Law

zebinisosheraliyeva2002@gmail.com

Abstract. In this article, the basis of norms in each country in relation to international and local investors and the need to maintain an internationally recognized fair and equal treatment policy, its standard levels, and the levels of interaction with customary law are discussed in this article. The national legal system of Uzbekistan, international traditions, bilateral and multilateral agreements of the international level are analytically studied. Based on the fact that one of the important factors for investment activity is the policy of fair and equal treatment, critical conclusions and suggestions were given.

Keywords: investment, fair and equal treatment, customary law, investor, foreign, local.

Kirish va dolzarbligi.

O‘zbekiston erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlanib borayotgan davlat hisoblanadi. Rivojlanish bosqichida esa, hammamizga ma’lumki, iqtisodiyot sohasining keng ko‘lamli tarzda olib borilishi natijasida davlat budjetiga katta miqdorda daromad kelishi eng muhim omillardan biridir. Iqtisodiy soha orqali pul, valyuta va boshqa qimmatliklarning aylanmasi hosil bo‘ladi, shu sababli bu aylanma amalga oshirilayotgan davlat o‘ziga yarasha daromad ham olib qoladi. Yurtimiz ham dadil rivojlanish yo‘lidan borar ekan unga ham, albatta, moliyaviy ko‘mak kerak. Bunday moliyaviy ko‘maklar investitsiya ko‘rinishida yurtimizga kirib kelmoqda. Investitsion faoliyat hozirgi vaqtda har bir davlat iqtisodiyotining muhim elementidir. Ushbu faoliyat nafaqat sanoat ishlab chiqarishi darajasini va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki jamiyatning ham ijtimoiy ahvolini yaxshilab boradi. Axir, iqtisodiyoti kuchli bo‘lgan rivojlangan davlatlar o‘z aholisiga yanada yaxshiroq ijtimoiy ta’minot berish imkoniyatiga ega bo‘lishlari hech birimizga sir bo‘lmay qoldi. Shuningdek, investitsiya faoliyati davlatni rivojlantirar ekan investor ham o‘ziga qulay va daromad keltiradigan joyga investitsiyasini kiritishni istaydi. Investitsiya kiritish oldi investitsiya kiritadigan hududning huquqiy rejimini, qonunchilik tizimini, iqtisodiy holatini, ijtimoiy ahvolini va xalqaro aloqalarini o‘rganadi. Yana aytish joizki, mavjud yoki oldin shu hududga investitsiya kiritgan investorlarning holatini va qanday faoliyat yuritayotganiga qiziqadi. Bizning xalqimiz ham, hattoki, bir dona mebel olish uchun ham arzon va sifatli joyni birinchi navbatda shunday mebel xarid qilgan tanishidan so‘raydi. Investorlar ham boshqa investorning faoliyatini o‘rganar ekan unga berilgan imtiyoz va kafolatlarni o‘rganib, unga shu ma’qul kelsa, investitsiyasini kiritadi. Investor boshqalarni ko‘rib keyin investitsiya kiritar ekan unga nisbatan ham boshqa o‘zi kabilar bilan teng tartibda va adolatli munosabat bo‘lishini va

qonunchilik tizimiga ham shu tushunchalar singdirilgan bo'lishini xohlaydi. Bugun kiritgan investitsiyasidan ertaga ajralib qolishni istamaydi yoki shunday shubhasi bo'lsa, investitsiya kiritmaydi ham. O'zbekiston rivojlanish yo'lida va shu sabab investitsiya O'zbekiston iqtisodi uchun muhim omildir. Bunda adolat va tenglik ham o'zaro bog'liq tushunchalar. Bu ikki tushunchaning o'zaro aloqa standartini topish va qonunchilik tizimida aks ettirish, aloqadorlikda siyosat yuritish investitsiya oqimini kengaytirishi mumkin. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-son Qarorini keltirishimiz mumkin. Ushbu hujjatlar asosida jamiyatda adolatli va teng tartibda investitsiya siyosatini olib borish tizimi qonunchiligimizda mustahkamlanib bormoqda. Bundan tashqari xalqaro konvensiyalarga a'zolik ham investor uchun adolatli va teng muomala tizimida ishlash uchun xalqaro himoyadir. Ya'nikim, investitsiya kiritiladigan hududda har bir investor uchun adolatli va teng muomalaga asoslangan siyosat yuritilsa, investor ertasiga ishonib harakat qiladi va boshqa investorlarni ham jalb etadi. Tenglik adolat bilan amalga oshirilishi globallashtirish davrida o'ta muhimdir.

Investitsiya tushunchasi va investitsion faoliyat asoslari.

Dastlab, investitsiya nima, investor kim ekanligi, uning kimlar tomonidan, qaysi sohalarga va qay tartibda kiritilishi va investitsion faoliyat nima ekanligini bilib olish lozim.

Investitsiyaga nisbatan turli olimlar tomonidan turlicha berilgan ta'riflar mavjud. Xususan, ba'zilar investitsiyani foyda olishni maqsad qilgan holda muayyan sohaga joylashtirilgan kapital deb hisoblasa, boshqalar investitsiya bu asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatiga kiritiladigan har qanday aktivlar deb qarashadi. Y.Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir. A.Vahabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrlarni bildirishgan: "Investitsiyalar – foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir". Ko'rinib turganidek, investitsiya nima ekanligi yuzasidan har kimning o'z fikr va qarashlari mavjud. Lekin ulardagi umumiylik bu foydani maqsad qiluvchi puldir. Demak, aytish mumkinki, investitsiya bu foyda olishni maqsad qilib qo'ygan investorning o'z davlat hududidagi yoki xorijiy davlat hududidagi ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa har qanday daromad olib keluvchi sohalarga kiritgan har qanday o'zini o'zi ko'paytiruvchi aktivi deb aytish ham mumkin. Investitsiya O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 25.12.2019-yildagi 598-sonli Qonuniga ko'ra, kapital, moliyaviy va ijtimoiy sohalarga kiritiluvchi mablag'lar, ko'char va ko'chmas mol-mulklar, intellektual mulkka doir huquqlar va boshqa qimmatliklar bo'lishi mumkin. Mana shu investitsiyalar orqali esa investorlar ma'lum bir sohaga mablag'larni kiritish orqali mablag' kiritgan sohasini ham, shuningdek, o'zining aktivlarini ham

kengaytiradi. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 25.12.2019-yildagi 598-sonli Qonuni 9-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari — rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma‘muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar investitsiya faoliyatining subyektlaridir . Ya’ni umumiy tavsiflasak, subyektlar yuridik shaxslar, jismoni shaxslar va davlatdir. Bu umumiy tushuncha bo‘lsa, xalqaro investitsiyaviy aloqalarda yana xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, ICSID, MIGA va boshq.), nodavlat notijorat tashkilotlari (JETRO, JICA, KOICA, TIKa va boshq.)ni ham keltirish mumkin. Investor faqatgina chet ellik bo‘lmaydi. Mahalliy subyektlar ham investitsiya faoliyatini o‘z hududlarida amalga oshirishlari mumkin.

Investitsiya nima uchun kerak degan o‘rinli savol ham, shu o‘rinda, vujudga kelishi mumkin. Masalan, Afrika davlatlarida qishloq xo‘jaligi sohasi yaxshi rivojlangan, biroq sanoat sohasi orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyati deyarli yo‘q, biroq bozorda qayta ishlangan mahsulotlarga ehtiyoj bor. Investorlar bu davlatlarga investitsiya kiritish orqali bozorning talabini qondiradi va tabiiyki, o‘zining bergan taklifi ortidan investitsiya qilgan pulidan ortiq daromad olish imkoniga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, investitsiya har qanday sohaga kiritilganda aslida shu investitsiyani bu sohaga va ayni shu hududga kiritish oqilona ishmi degan savol turadi. Investitsiya kiritishdan investor foyda olishi kerak. Ushbu foyda esa bozor to‘yinmagan holatda bo‘lsa samaralidir. Ya’ni, investitsiya kiritiladigan sohada ushbu investitsiyaga talab bo‘lishi va kiritilgan aktivlar ko‘paygan holda

qaytishi lozim. Investitsiya texnologiya sohasiga kiritildi deylik, lekin investitsiya kiritilgan hududda allaqachon bozorda texnologik mahsulotlar soni xaridorlarni qoniqtiradi va bozorda aniq monopoliya tizimi ham mavjud. Bunda investitsiya o'zini oqlamaydi. Investitsiya kiritish oldi bozor chuqur tahlil etilishi kerak. Mablag' kiritilgan sohada talab mavjudmi, xaridorlar miqdori kiritilgan investitsiyani qoplash bilan bir qatorda qancha daromad keltiradi, tavakkalchilik miqdori qanday kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda investor uchun eng muhim bo'lgan huquqiy rejim qanday ekanligi, davlat siyosati qaysi yo'ldan ketayotganligi va qaysi sohalarga davlat tomonidan keng imtiyoz va kafolatlar berilayotganligi, nizolarni hal etishda davlatning yurisdiksiyasi va xalqaro miqyosda tan olingan konvensiyalarga a'zolik darajasini ham o'rganish zarur. Davlatlar investitsiyadan manfaatdorligi uning iqtisodiyotida yangi texnologiya, nau-xaular, eksportni kuchaytirib, yangi ish o'rinlarini yaratishida ko'rinadi. Investor uchun esa ushbu faoliyat xavfsiz, adolatli va teng muomalada bo'lsa, foyda keng bo'ladi. Demak, investor investitsiya kiritar ekan barcha tomonlarni chuqur tahlil qilib investitsiya kiritadi va bu kiritiladigan mablag' investitsion faoliyat natijasida o'z-o'zini ko'paytirib boradi.

Investitsion faoliyatda "Checklist for Decision-making" tushunchasi ham muhim sanaladi. Bu checklist orqali investor ushbu hududga investitsiya qilish huquqiy asoslarini tahlil qiladigan qo'llanma deyish mumkin. Bu orqali investor investitsiya xavfsizligi, adolatli va teng muomala siyosatini ta'minlashda qanday huquqiy asoslar borligini bilib oladi. Xususan, davlatning xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilganligi, xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, milliy qonunchilik tizimida nizoni hal etish va faoliyat yuritishdagi erkinlik va imtiyozlarni tahlil etadi.

Adolatli va teng muomala standarti.

Adolat va tenglik eng qadimgi jamiyat shakllanishining dastlabki davrida amalda bo'lgan normalarda o'z aksini topa boshlagan. Ijtimoiy normalar bilan jamiyat hayotini tartibga solish insoniyat hayotida eng muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Ularning barcha uchun qat'iy qilib o'rnatilganligi va unga amal qilishning ta'minlanishi jamiyatni tartibga keltiradi. Qoidalar qanchalik hayotiy, adolatli bo'lsa va ularni amalga oshirilishi ta'minlansa, bunday jamiyatda ijtimoiy tartib yuksak darajada bo'ladi. Aksincha, qoidalarga rioya etilmasa, normalar buzilsa, jamiyat hayotida tartibsizlik yuz beradi. Tartibsizlik jamiyatni oxir-oqibatda halokatga olib kelishi mumkin. Dastlabki jamiyatlar oilaga asoslangan va shu sababli hammani birdek ko'rish va har biri uchun adolat bilan yondashuv jamiyatning rivojini belgilab bergan. Shu sababli ham hozirda mavjud normalar ming yillar davomida shakllanib, o'zaro singib ketgan dastlabki davlatchilik asoslangan standartlar asosiga qurilgan.

Investitsiya faoliyatida adolatli va teng muomala standarti hozirgi kunda investitsiya shartnomalarida va davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalarda (BIT) investitsiyani himoya qilish, kafolat va imtiyozlar berish va nizolarni hal etish kabi huquq va majburiyatlarda aks etmoqda (ingliz tilida qisqacha: legal consistency, stability and predictability).

Ushbu adolatli va teng muomala standarti (qisqacha FET deyiladi), dastlab, Xalqaro savdo tashkilotining Gavana Xartiyasi (1948) va Bogota Iqtisodiy kelishuvi (1948), shuningdek, Qo'shma Shtatlardagi do'stlik, tijorat va navigatsiya kabi dastlabki xalqaro iqtisodiy shartnomalarda paydo bo'lgan. FET standartidan birinchi foydalanish 1959-yilda Hermann Abs va Lord Shoukross tomonidan taklif qilingan Chet elda investitsiyalar to'g'risidagi konvensiya loyihasining 1-moddasiga to'g'ri keladi: Har bir tomon har doim

boshqa tomonlar fuqarolarining mulkiga nisbatan adolatli va teng munosabatni ta'minlaydi. Bunday mulk boshqa tomonlarning hududlarida eng doimiy himoya va xavfsizlik bilan ta'minlanadi va ularni boshqarish, foydalanish va foydalanish hech qanday tarzda asossiz yoki kamsituvchi choralar bilan buzilmasligi kerak "(Abs va Shawcross, 1960) . Hozirda asosan BITda arbitraj nizolarida ko'p uchramoqda. Ko'ringanidek adolatli va teng muomalada bo'lishda taraflarga investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish uchun sharoitlar yaratish va ular uchun himoya muhitini yaratib berish muhim omildir. Har bir investor bilan tuziladigan investitsiya shartnomalari va davlatlar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BIT) mana shu FET standartini singdirgan holda tuzilishi kerak. Har bir davlat va investor bilan tuziladigan shartnoma turlicha bo'ladi va buning sababi har bir investor turli miqdorda investitsiya kiritadi. Investitsiya miqdori, investorning loyihasi qanday sohaga qaratilgani va bu sohaga investitsiya kiritish ehtiyoji mavjudmi, olinishi kutiladigan daromad miqdori qanday, qanday foyda va kamchiliklari bo'lishi va boshqa barcha obyektiv va subyektiv sabablarga qarab investitsiya shartnomasi va ikki tomonlama investitsiya bitimlari tuziladi. Mana shu BIT va investitsiya shartnomasida taraflar uchun belgilab qo'yiladigan huquq va majburiyatlar umume'tirof etiladigan xalqaro prinsiplarga va investitsiya sohasidagi xalqaro kelishuvlarda mustahkamlangan standartlarga FET nazariyasi singdirilgan bo'lishi kerak. Bunda shartnomada ko'rsatilgan bandlar investor uchun qila oladiganidan ko'p majburiyat yuklash adolatli bo'lmaydi va bunda investorga foyda kelmasligi ham mumkin. Har bir tuziladigan kelishuv har xil bo'lganligi uchun FET standartlari har bir kelishuvda har xil sharhlanadi. Biroq, umumiy qoida asosida o'zaro taraflar uchun maqbul, investorga va uning mulkiga himoya, xavfsizlik va foyda olish huquqini berishi bu FETning minimal standarti bo'ladi. Ushbu talablarning buzilganligi yoki buzilmaganligi

tafllar o'rtasida nizo kelib chiqqanda shartnomaning sharhlanishi eng muhimidir. Kelishuvda adolatli va teng muomalada bo'lish standartlari bo'lgan investorning va investitsiyaning xavfsizligi, investitsiyani boshqarish va foydalanish cheklab qo'yilmasligi, kamsituvchi omillar bo'lmasligi kerak. Mana shu eng muhim standartlar har bir investitsiya shartnomasi va BITda o'z aksini topishi lozim.

Investor kelganda ancha vaqt investitsiya faoliyati bilan shug'ullanaman va ko'plab daromad topaman deb o'ylaydi, biroq oradan ko'p o'tmay davlat uning pulini olib qo'yish uchun turli bahonalar va qonunchilikda o'zgarishlar qilishi mumkin. Mana shu ishlarni cheklash uchun ham FET tizimi joriy etilgan bo'lib, investor shartnoma tuzayotganda umid qilishi mumkin bo'lgan va berilgan imkoniyatlar keyinchalik olib qo'yilishini cheklash maqsadi ko'zlangan. Bu tizim barcha sohalarda qo'llanilsada, investitsiyada investitsion nizolarni hal etishda va investor va investitsiyaning asosiy himoyasi bo'lib maydonga chiqadi. Adolatli va teng muomala standarti mutlaq himoya standarti hisoblanadi, masalan, litsenziyalarni o'zboshimchalik bilan bekor qilish, investorni asossiz jarima va jarimalar bilan ta'qib qilish yoki biznesni buzish maqsadida boshqa to'siqlarni yaratishdan. Adolat va tenglik o'zaro bog'liq bo'lib, adolat bor joyda tenglik o'rnatilgan deyish mumkin. masalan, bir investorning puli 1000 \$ va ikkinchisidiki 3000 \$. Ikkalasiga tenglik qilib 2 yildan soliq imtiyozi berilsa, ikkinchi investor ko'p pul kiritmasam bo'larkan deydi va oqibatda boshqa investorlar ham adolat yo'q deb hisoblab puliga kuymaslik uchun 1000 \$ kiritaveradi. Adolat bilan 1000 \$ kiritadiganlarga 1 yil soliq imtiyoz va 3000 \$ kiritadiganlarga 2 yil soliq imtiyozi berish mana bu bir xil pul investitsiya qiladiganlar orasida tenglik va investorlar ichida adolatdir. Bunday tizim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005-yildagi 3594-sonli "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni

rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalariga quyidagi to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi:

300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha — 3 yil muddatga;

3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha — 5 yil muddatga;

10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 7 yil muddatga .

Bir davlatdan kelgan investorning davlati bilan BIT tuzilgan bo'lsa, o'sha bitimda adolatli va teng muomalaning minimal prinsipini aks ettirish zarur. Bu xalqaro miqyosda tan olingan standart bo'lib, davlatlar shartnomalarida bu standartni qo'llashlari lozim. Xalqaro talab bu standartni qo'llashni talab qilar ekan, ushbu standart bo'lmagan BITlar qayta ko'rib chiqilishi yoki yangidan tuzilishi lozim. Xususan, bu standart ko'plab BITlarda aytilayotgan bo'lsada, u har doim ham ba'zi Osiyo davlatlari tomonidan tuzilgan shartnomalarda (masalan, Pokiston, Saudiya Arabistoni va Singapur tomonidan imzolangan ba'zi shartnomalarda) eslatib o'tilmaydi . Bunda FETning o'ziga xos elementlari:

FET milliy qonunchilik bilan emas xalqaro huquq normalari bilan belgilanadi;

Adolatlilik va tenglik prinsipi xorijiy investorga host state investori bilan bir xil muomala qilinganda ham buzilishi mumkin;

Nizolarining aksariyatida investorlar mazkur principning buzilganligini asos qilishgan;

Ayrim BITlar FET tushunchasining nimadan iboratligini yozishadi(Germaniya, Shvetsiya, Svetsariya);

Ayrimlari FETni xalqaro huquqning umumiy qoidalari sifatida talqin qiladi (France, US, UK Canada)

Ayrimlar “adolat va tenglik”ni yagona, umumlashgan standard sifatida qarashadi . FET ko‘ringanidek, boshqa xalqaro standartlardan ko‘ra o‘ziga xosdir, shu sababli hozirda BITlarda uning aniq chegarasini va nimalarda ifodalanishini keltirish muhimdir. FET har qanday diskriminatsiya va ekspropriatsiyadan xoli bo‘lishi kerak.

Yaqinda tuzilgan yangi avlod shartnomalari, Qo‘shma Shtatlar va Avstraliya o'rtasidagi Erkin savdo bitimlari , Markaziy Amerika (CAFTA) , Chili , Marokash va Singapur o'zlarining Investitsion boblarida har bir tomonning "kelishuvi" majburiyati borligini yanada aniqroq belgilaydi. Qoplangan investitsiyalarga nisbatan xalqaro odat huquqiga muvofiq tartib, shu jumladan adolatli va teng muomala rejim hamda to‘liq himoya va xavfsizlik” bor.

Xalqaro shartnomalar va davlat amaliyotida standartning joriy qo'llanilishi Avstraliya va Tailand o‘rtasidagi Erkin savdo shartnomasi bor va uning 909-moddasida, shuningdek, har bir tomon o‘z hududida xorijiy investitsiyalarga nisbatan “adolatli va teng munosabatni ta’minlash”

majburiyatini oladi deyiladi . Adolatli va teng muomala xavfsizlik, mulkdan erkin foydalanish va investitsiya himoyasida namoyon bo‘luvchi standart bo‘lib, BITlarda o‘zaro kelishib qo‘yiladi va nizo mana shu standart belgilangan kelishuv asosida hal etiladi va himoyaviy xususiyatga ega deyish mumkin.

Xalqaro odat huquqining minimal standarti bilan o‘zaro bog‘liqlik.

Barchamizga ma’lumki, qadimgi vaqtlarda davlatlarning ko‘pchiligi bir-biriga dushman bo‘lib kelishgan va shu sababli ularning mulkiga va o‘zlariga nisbatan yaxshi munosabat bildirilmagan. Hozirda investorning mulkini egallashga qaratilgan ishlarni oldini olish yo‘lida qilinayotgan adolatli va teng muomala standarti mana shu munosabatni to‘g‘irlashga qaratilgandir. Odat huquqiga ko‘ra, chet el investorlari uchun ma’lum bir muomala rejimi o‘rnatiladi va bu rejimdan chiqish esa tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bu ham investitsiya va investitsiya faoliyatining xavfsizligi va rivojlanishini belgilovchi omil desak adashmaymiz. Qabul qiluvchi davlat xalqaro odat huquqiga aylangan investorga muomala qilish tartibini buzsa, avvalo, diplomatic usulda kelishib olish zarur. Agar bunday imkon bo‘lmasa yoki kelishuvga erishib bo‘lmasa, nizoni xalqaro darajada hal etish imkoniyatlarini o‘rganish zarur. The Minimum Standard of International Law Applied to Aliens, Leiden, 1949, u yerda quyidagicha ta’riflangan (127-bet): “... xalqaro standart qoidalar to’plamidan boshqa narsa emas, bir-biri bilan o’zaro bog’liq va umumiy xalqaro huquqning ma’lum bir me’yoridan kelib chiqadi, ya’ni chet elliklarga nisbatan muomala davlatlar qonunlari bilan tartibga solinadi” . Ya’ni adolatli va teng muomala standarti odat huquqi asosida davlatning ham qonunchiligida aks etishi orqali investorlarga bo‘lgan munosabat tizimini mustahkamlashni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 25.12.2019-yildagi 598-sonli Qonuni 46-moddasiga ko‘ra, Chet ellik investorlarga hamda chet el investitsiyalariga adolatli va teng huquqli rejim taqdim etiladi, ularni to‘liq va doimiy ravishda himoya qilish hamda ularning xavfsizligi ta‘minlanadi. Bunday rejim O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan rejimga nisbatan noqulayroq bo‘lishi mumkin emas. Mana shundan bilishimiz mumkinki, adolatli va teng muomala standarti xalqaro odat huquqi bilan aloqadorlikda milliy qonunchiligimizda ham aks etgan. Adolatlilik va tenglik degani bu chet el investorlariga barcha ish mumkin degani emas. Masalan, qonunchilikda umum e‘tirof etilgan prinsiplarga va normalarga moslikni ta‘minlash, atrof-muhit, aholi sog‘lig‘i kabi sohalarni saqlash uchun investorlarga investitsiya kiritishda ba‘zi cheklovlarni ham o‘rnatish mumkinligi yuqoridagi qonunda aks etgan. Bu kabi cheklovlar davlatning o‘ziga xosligi va boshqa muhim holatlarini saqlash uchun ham o‘rnatilgan va odat huquqida ham minimal talab bu adolat va teng muomala standarti hisoblanadi. ya‘ni faoliyat uchun muhim bo‘lgan yo‘nalish va ishlar muhofazada bo‘lishi kerak.

OECDning Chet el mulkini himoya qilish to'g'risidagi Konventsiya loyihasining 1-moddasiga eslatma va izohlarda loyiha uchun mas'ul Qo'mita adolatli va teng muomala tushunchasi “xalqaro huquqning yaxshi o'rnatilgan umumiy tamoyilidan kelib chiqqanligini ta'kidlab, boshqa davlatlar fuqarolarining mulkini hurmat qilish va himoya qilishga majburdir” -, deydi. Qo'mita qo'shimcha qildi: “Tegishli ikki tomonlama bitimlarda odat bo‘lgan “adolatli va teng muomala” iborasi har bir davlat tomonidan chet el fuqarolarining mulkiga nisbatan to‘g‘ri keladigan muomala uchun xalqaro huquq tomonidan belgilangan standartni bildiradi. Standart xavfsizlikning muhim manfaatlarini hisobga olgan holda, Konventsiya bo‘yicha taqdim

etiladigan himoya, odatda, tegishli tomon o'z fuqarolariga taqdim etadigan himoya bo'lishini talab qiladi, biroq xalqaro huquq bilan belgilanadigan bo'lsa, standart milliy qonunchilik yoki milliy qonunchilik qoidalariga muvofiq qat'iyroq bo'lishi mumkin. Milliy ma'muriy amaliyot xalqaro huquq talablariga javob bermaydi. Talab qilinadigan standart xalqaro odat huquqining bir qismini tashkil etuvchi "minimal standart" ga amal qiladi. Adolatli va teng muomala chet el investorlariga xavfsizlikni ta'minlash standarti xalqaro odat huquqi talab qiladigan minimal standartlarga mos keladi. Odat huquqida ham chet elliklar bilan muomala qilishda minimal bo'lgan mulk himoyasi va xavfsizlik adolatli va teng muomala bilan minimallik darajasi o'xshashligida ifodalanadi deyish mumkin.

Xalqaro huquqning investitsiya huquqida bir necha talablari mavjud va ulardan eng minimali bu adolatli va teng muomala bo'lsa, u bilan birgalikda odat huquqi ham muhim elementdir. Bunda FET xavfsizlik, himoyani BITda ifodalashni nazarda tutsa, odat huquqi chet ellik investorga bo'lgan adolatli va teng muomala rejimini davlat rejimida bajarishni taqazo etishi ma'lum bo'lmoqda.

AQShning 2004-yildagi yangi modeli BIT o'zining 5-moddasida Investitsiyalar bo'limida yanada uzoqroqqa boradi va muomalaning minimal standartini belgilashga harakat qiladi. Ular quyidagilarni ta'minlaydi: "Har bir tomon investitsiyalar uchun odatlangan xalqaro huquqqa muvofiq tartibni, shu jumladan adolatli va adolatli rejimni, to'liq himoya va xavfsizlikni ta'minlaydi". Demak, odat huquqi investitsiya faoliyatida qadimdan o'rnatilgan chet elliklarga bo'lgan munosabtda adolatli va teng munosabatda bo'lishni milliy qonunchilikda ifodalashni va ta'minlashni ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, investitsiya bu kapitaldan kapital hosil qilish jarayoni bo‘lib, bunda investor investitsiya kiritganda foyda olmasa o‘z ishini boshlamaydi. Foyda olishi uchun esa investitsiya kiritiladigan soha mavjud bo‘lishi, bozor to‘yinmasligi kabi iqtisodiy faktorlar bilan bir qatorda huquqiy omillar ham mavjud. Bunday omillardan eng asosiy va minimal ko‘rsatkichlar adolatli va teng muomala standartini yaratish va nizo kelib chiqqanda BITda ko‘rsatilgan asoslarda himoya vazifasini ushbu standart bajarishi keltirilgan. Investorning himoya standarti deyish mumkin va shuning uchun BITda ham aks etilishi kerak. Xususan, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi va O‘zbekiston va Avstriya o‘rtasidagi BITlarda ham aynan adolatli va teng munosabat standarti tomonlarning majburiyati ekanligi ko‘rsatilgan. Bu davlatimizning xalqaro darajada integratsiya qilishga urinayotganligining huquqiy asosi. Xalqaro odat huquqida esa chet elliklarga nisbatan shakllangan minimal munosabat shakllari rejim sifatida o‘rnatilib buni buzish davlatni javobgarlikka tortishga asos bo‘lishini, minimal standartlar esa adolat va tenglik bilan bog‘liq himoyaga asoslangan siyosiy rejim ekanligini ko‘rib o‘tdik. Investitsiya jamiyatning hayot indeksini oshiradi desak, bu soha ana shunday himoya tizimiga muhtoj. Biz investitsiya oqimini xohlaymiz va uni rivojlantirmoqchi bo‘lsak, adolatli va teng munosabatda xavfsizlikni ta‘minlab, uni milliy qonunchilikda ham ifodalashimiz lozim. Mana shular investorning yurtimizga kirib kelishida himoya funksiyalarining dastlabki ko‘rinishi bo‘ladi. Demak, investitsiya oqimini oshirish va xalqaro standart talabini bajarish uchun:

1. Chet el investitsiyasini jalb etish uchun to‘yinmagan bozorlarimizning jozibadorligini oshirish, o‘sha sohalarda kengroq imtiyoz va kafolatlarni qo‘llash

2. BITlarda adolatli va teng muomala standartini minimal daraja chegaralarini va bu talabni buzganlik uchun javobgarlik miqdorini belgilash, chet ellik va mahalliy investorlar o'rtasida salbiy farq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va shu bilan chet ellik investorlarning pozitsiyasini fuqarolarga teng darajaga ko'tarish.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, asosan, chet el investorlari uchun, lekin mahalliy investorlar uchun esa qonunchiligimizda yangiliklar qilish kerak deb hisoblayman. Masalan:

1. Mamlakatimizda ham mahalliy investorlar faoliyat yuritishi va investitsiya shartnomasi tuzishi mumkin lekin mahalliy investorlar uchun alohida normativ hujjat mavjud emas. Mahalliy investorlarning faoliyati, xavfsizligi, imtiyoz, kafolat va preferensiyalari kabi sohalarni tartibga soluvchi alohida normativ ishlab chiqish zarur deb hisoblayman. Mahalliy investorlarning ham faoliyat yo'nalishi belgilansa, keyinchalik yalpi ichki mahsulot va valyuta oqimi kuchayishi mumkin.

2. Investorlarga beriladigan kafolatning o'zida tafovutlar seziladi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 25.12.2019-yildagi 598-sonli Qonuni 19-moddasiga ko'ra, qonunchilikdagi noqulay o'zgarish chet el investor uchun 10 yil, biroq O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 328-sonli O'RQga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari uchun 3 oy (aynan mahalliy investorlar uchun norma bo'lmaganligi sababli qonun o'xshashligi orqali mahalliy investorga tadbirkor maqomini qo'yamiz). Mana shunda faoliyat investitsion ekanligidan mahalliy investorga ham beriladigan muddatni ko'paytirish.

Adabiyotlar / References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005-yildagi 3594-sonli “To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 25.12.2019-yildagi 598-sonli Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.
3. FAIR AND EQUITABLE TREATMENT UNCTAD Series on Issues in International Investment Agreements II https://unctad.org/en/Docs/unctaddiaeia2011d5_en.pdf
4. Handbook on Obligations in International Investment Treaties, APEC Committee on Trade and Investment (CTI).
5. OECD (2004), “Fair and Equitable Treatment Standard in International Investment Law”, OECD Working Papers on International Investment, 2004/03, OECD Publishing.
6. Sh.A. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021.
7. Abdikhakimov, I. (2023, January). Trademark and copyright infringements in social media. In International Conference on Legal Sciences (Vol. 1, No. 1, pp. 187-200).
8. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: «Moliya»
9. Шарп У.Ф., Александр Г.Д., Бейли Д.В. Указ. соч. – С. 25
10. Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с.

11. Сошников И.В. Классификация инвестиций и формирование инвестиционного рынка в регионах России // Региональная экономика: теория и практика. 2007. С. 24
12. Abdikhakimov, I. (2023, January). Trademark and copyright infringements in social media. In International Conference on Legal Sciences (Vol. 1, No. 1, pp. 187-200).
13. Investitsion faoliyat tushunchasi va uning tasniflanishi. Fozilbekov Bekzod Tohir o'g'li Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 2 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor.
14. Абдихакимов, И. (2023). SUG 'URTA FRANSHIZASI VA UNING TURLARI HAQIDA. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 176-180.
15. Fair and Equitable Treatment: Its Interaction with the Minimum Standard and Its Customary Status. Author: Patrick Dumberry. 1–82.
16. <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements>
- International Investment Agreements Navigator